

Bolaligida g'alabaga hissa qo'shgan inson xotiralari

Ikkinchi jahon urushi yillarida butun O'zbekiston mehnat frontiga aylantirildi. Front uchun jangchilar, oziq-ovqat, kiyim-bosh, qurol, ehtiyot qismlar yetkazish o'zbek xalqi zimmasiga tushgan katta mas'uliyat, og'ir mehnat bo'ldi. Erkaklar frontda, kekxa otaxonlar "Rabochiy batalyon" deb nomlangan ishchi qismlarida, ayollar va bolalar esa dalada, zavod va fabrikalarda tinimsiz mehnat qilib, urush ehtiyojlari uchun zarur mahsulotlarni yetkazish bilan ovora edilar. Bu haqda Toshkentning Labzak mahallasida yashagan, urush boshlanganda endigina 12 yoshda bo'lgan Fattoh Ergashev xotiralarida shunday bayon qilingan:

- Oilada 8 kishi edik, - deb xotirlaydi otaxon. - Otam Toshkentdagi samolyotsozlik zavodi qoshidagi ishchi xizmatiga chaqirildilar. U kishi kuni bilan xizmatda bo'lib, deyarli yarim tunda horib-tolib qaytar edilar. Bu ish uchun haq to'lanmasdi. Onam uy bekasi edi. Eng kichik ukam hali norasida go'dak, 6 farzandni boqish uchun hech qanday daromad va mablag' yo'q edi. Men oilada ikkinchi farzand edim. 14 yoshimda o'qishni tashlab, Toshkentdagi Chkalov nomli zavodga ishga kirdim. Zavodda harbiy samolyotlar uchun o'rindiqlik tayyorlash sexiga qabul qilishdi. Bu yerda urush tugaguncha, aniqrog'i 1946 yilgacha mehnat qildim. Zavod uyimizdan taxminan 15-20 kilometr uzoqda edi. Shahar transporti urush sharoiti tufayli uzluksiz yurmasdi. Ishga piyoda borar edik. Tong sahar

5 da yo'lga chiqib, 8 ga ishga yetib borardim. Mehnat intizomi juda qattiq edi. Ish soati cheklanmagan bo'lib, ba'zan 15-16 soatgacha cho'zilib ketardi. Kechqurun yana piyoda 3 soat yo'l yurib, yarim kechada uyga yetib kelar edim. 3-4 soat dam olib, yana erta bilan yo'lga tushardim. Dam olish kunlari yoki soatlari haqida so'z ham bo'lishi mumkin emas edi: zavod mudofaa ahamiyatidagi korxonaga bo'lganligi uchun tunu-kun uzluksiz ishlar edi.

Qishning sovuq kunlari, ayniqcha, 1944 yilning qahraton qishi, sira yodimdan chiqmaydi. Ishga kelgunimcha yoki ishdan uyga qaytgunimcha egnimdagi kiyimlarim muzlab, taxtadek qotib qolar edi. Tuni bilan kiyim-kechakni tanchada quritib, ertalab tong yorishmay, izg'irinli shamol uvullayotgan qorong'u ko'chalardan yana ishga ketardim. Zavodga yetib kelgach, muzlab qolgan qo'l-oyog'imga issiq o'tib ulgurmay, ish boshlardim. Men harbiy samolyotlar uchun o'rindiqlik tikardim. Tushlik uchun 20 soniya vaqt berilar edi. Zavod ishchilari holdan ketib yiqilgunga qadar dastgoh qoshidan ketmas edilar.

Urush yillarida men ishlagan zavodda ishchilar yoshi, jinsidan qat'iy nazar fidokorona mehnat qilganlar, ularni bunga tirikchilik g'amigina emas, g'alabaga, yaxshi kunlarga bo'lgan umid undar edi. Hamma bir jonu bir tande mehnat qilardi. Mehnat normasini ortig'i bilan bajarganlarni «staxanovchi» deb atashardi. Men ham normani 127 foiz bajarib, «staxanovchi» nomiga erishganman. Ishchilar biror-bir unvon yoki mukofot olish niyatida mehnat qilmaganlar, ular o'z vazifalarini sidqidildan bajarganlar, xolos.

Zavod ishchilariga 800 gramm non uchun kartochka berilgan. Men non kartochkasini uyga olib kelardim, unga olingan nonni oilamiz baham ko'rar edi. Bu albatta, kamlik qilardi, shuning uchun men tushlikda berilgan nonni yemasdan uyga, aka-ukalarimga olib ketardim. Buni ko'rgan ishchilar menga o'z nonlaridan ozgina bo'lib berishar: «Ol, ye, senga ishlash uchun kuch kerak, axir xali juda yosh va kichiksan-ku!»-deb mehribonlik qilishar edi. Umuman, odamlar orasida mehr-oqibat juda kuchli edi.

Oilamiz katta bo'lishiga qaramay, xonadonimizdan muhandis Fyodor Vasil'evich Bukarev oilasiga joy bergandik. Ular bizlar bilan juda ahillikda yashaganlar. Urush tugagach, 1947 yilda Podmoskov'ega ko'chib ketishdi. 1956 yilda ularnikiga borib mehmon bo'ldim. O'tgan kunlarni xotirladik.

Mening fikrimcha, aynan mehr-oqibat, yaxshi kunlarga bo'lgan ishonch, g'alabaga umid, shunday qiyin damlarda kishilarga madad bo'lib, kuch bergan. Tasavvur eting-a, haftalab issiq ovqat yemaganmiz, oylab go'sht ko'rmaganmiz, bir burda non yesak «kunimiz yaxshi o'tdi», - deb shukrona aytardik. Ust-boshimiz juda yupun, yozda oyoq-yalang yurardim, bir sutkada 4-5 soat uxlardim, bor-yo'g'i 14 yoshdagi jikkakkina, nozik bolaman. Shunday holatda bir necha yil ishladim. Oiladagi olti-etti jon uchun bir burda non topish, jigarlarimga bo'lgan mehr, zavoddagi ishchilar mehr-oqibati menga kuch bergan bo'lsa kerak-da.

Esimda, bir kuni tun yarmida sovuq qotib, qattiq charchab kelib, uxlab qolibman. Erta tongda kun yorishmay onam boshimni silab uyg'ota boshladi: «Tur bolam, tur, ishga kech qolasan!». Uning so'zlari qulog'imga kiradi-yu, ko'zlarimni ochishga, boshimni ko'tarishga majolim yo'q. Shu payt yuzimga bir tomchi qaynoq narsa tushdi, men yalt etib ko'zimni ochdim, bu onamning mehr-muhabbat to'la yosh tomchilari edi. U bir

qo'li bilan beshikda uxlayotgan ukamni tebratib, bir qo'li bilan mening boshimni silab, tinmay xirgoyi qilar edi:

«Oti o'chsin Gitlarni, oti o'chsin, jon bolam! Ko'pi ketib oz qoldi, oz qoldi-ku, jon bolam, sabr qilgin, jon bolam!». U shunday shikastalik bilan alla aytgancha, yum-yum yig'lardi. Shu bir tomchi mehr yoshi va onamning so'zlaridagi g'alabaga bo'lgan ishonch menga shunday kuch bag'ishladiki, xorg'inlikda bemajol ezilib yotgan joyimdan sakrab turdim...

Fattoh ota o'sha kunlarni eslab ko'zlari yoshlandi. Hali suyagi qotmay, hayotning og'ir sinovlariga duch kelganda uni mardonavor yenggan irodali inson o'spirinlikda boshdan kechirgan qiyinchiliklarni, ona mehrini, mehr-oqibatni eslab ko'zlari yum-yum yoshlandi.

**Dono Ziyayeva,
O`zR FA Tarix instituti, t.f.d., professor.**